Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

IJTIMOIY-GUMANITAR

UDK: 193.479.135
Orcid: 0009-0007-6348-681X

SHAXS IJTIMOIYLASHUVIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

Norliyev Rustam Ibragimovich
Termiz davlat pedagogika instituti
Falsafa va ma'naviyat asoslari kafedrasi mudiri,
falsafa fanlari nomzodi, dotsent
E–mail: norliyevr@mail.ru

Annotatsiya: Shaxsning ijtimoiylashuv jarayoniga ta'sir qiluvchi omillar turli ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik hamda ma'naviy-madaniy faktorlarni o'z ichiga qamrab oladi. Ushbu omillar shaxsning jamiyatga moslashishi, undagi ijtimoiy rol va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonini shakllantirishga xizmat qiladi. Shaxsning ijtimoiylashuvi uzluksiz jarayon bo'lib, turli bosqichlarda ushbu omillar ta'siri o'zgarib boradi. Shu sababli, jamiyatning har bir a'zosi ijtimoiy muhitga moslashishda doimiy ravishda o'zgarishlarga uchraydi.

Insonning biologik, ijtimoiy va ma'naviy mohiyati o'zaro bog'liq bo'lib, ular insonning to'laqonli shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Biologik xususiyatlar insonning hayotiy ehtiyojlarini ta'minlasa, ijtimoiy jihat uni jamiyatning faol a'zosiga aylantiradi. Ma'naviy tomon esa insonning ichki dunyosini boyitadi va uni ongli mavjudot sifatida namoyon etadi. Shaxsning to'laqonli rivojlanishi ushbu uch omilning uyg'unligiga bog'liq bo'lib, biologik omillar tug'ma bo'lsa, ijtimoiy va ma'naviy omillar insonning tarbiyasi, ta'limi va jamiyatdagi faolligi bilan shakllanadi. Ushbu maqolada inson mohiyatining ushbu uch jihati dialektik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Falsafa tarixida shaxs va uning biosotsial xususiyatlari borasida bildirilgan fikrlar qiyosiy o'rganiladi.

Kalit so'zlar: falsafa tarixi, shaxs, inson, odam, biosotsial mavjudot, falsafiy antropologiya.

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА СОЦИАЛИЗАЦИЮ ЛИЧНОСТИ

Аннотация: Факторы, влияющие на процесс социализации личности, включают в себя различные социально-экономические, психологические и духовно-культурные факторы. Эти факторы формируют процесс адаптации личности к обществу, усвоение ею социальных ролей и ценностей. Социализация личности — непрерывный процесс, и влияние этих факторов меняется на разных этапах. Поэтому каждый член общества постоянно претерпевает изменения, приспосабливаясь к социальной среде.

Биологическая, социальная и духовная сущность человека взаимосвязаны и играют важную роль в формировании человека как полноценной личности. В то время как биологические характеристики обеспечивают жизненные потребности человека, социальный аспект делает его активным членом общества. Духовный аспект обогащает внутренний мир человека и раскрывает его как сознательное существо. Полноценное развитие человека зависит от гармонии этих трех факторов. Если биологические факторы являются врожденными, то социальные и духовные факторы формируются в процессе воспитания,

образования и деятельности человека в обществе. В данной статье эти три аспекта человеческой сущности анализируются с диалектической точки зрения. Сравнительно изучаются идеи, высказанные в истории философии относительно человека и его биосоциальных характеристик.

Ключевые слова: история философии, личность, человеческое существо, человек, биосоциальное существо, философская антропология.

FACTORS AFFECTING THE SOCIALIZATION OF A PERSON

Annotation: Factors influencing the process of socialization of a person include various socio-economic, psychological and spiritual-cultural factors. These factors serve to shape the process of adaptation of a person to society, the assimilation of social roles and values in it. The socialization of a person is a continuous process, and the influence of these factors changes at different stages. Therefore, each member of society is constantly undergoing changes in adapting to the social environment.

The biological, social and spiritual essence of a person are interconnected and play an important role in the formation of a person as a full-fledged individual. While biological characteristics provide for the vital needs of a person, the social aspect makes him an active member of society. The spiritual aspect enriches the inner world of a person and reveals him as a conscious being. The full development of a person depends on the harmony of these three factors. While biological factors are innate, social and spiritual factors are formed through a person's upbringing, education, and activity in society. This article analyzes these three aspects of the human essence from a dialectical perspective. The ideas expressed in the history of philosophy regarding the person and his biosocial characteristics are comparatively studied.

Keywords: history of philosophy, personality, human being, man, biosocial being, philosophical anthropology.

KIRISH. Shaxsiyat shaxsni boshqalardan ajratib turadigan barcha xususiyatlarni ifodalaydi. Shu ma'noda shaxs – asrlar davomida allomalarni eng ko'p qiziqtirgan va ko'plab olimlar o'rgangan mavzulardan biridir. Shaxsning shakllanishida irsiy va atrof-muhit omillari juda muhim rol o'ynaydi. Shaxs rivojlanib borar ekan, u doimo ichki va tashqi stimullar ta'sirida bo'ladi. Shaxsning shakllanishida irsiyat, oilaviy hayot, oiladan tashqari turmush sharoiti, jamiyatning talablari kabi ko'plab turli omillar ham muhim rol o'ynaydi. Shaxs borasidagi tadqiqotlar faol tarzda XX asrning dastlabki yillarida boshlangan va psixologlar, faylasuflar, biologlar, antropologlar tomonidan ko'plab shaxs to'g'risidagi nazariyalari ishlab chiqilgan.

Shaxs tabiati va mohiyati muammosini o'rganish jahon hamjamiyati, shu jumladan bizning jamiyatimiz oldiga doimiy ravishda yangi muammolarning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, ularning aksariyati global xarakterga ega va odamlarning mavjudligiga tahdid soladi. Insoniyat hal etilmagan muammolar yuki bilan uchinchi ming yillikka qadam qo'ygan bugungi kunda ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha, inson avvalo o'zini, mohiyati va maqsadini anglamay turib, o'zining dolzarb muammolarini hal eta olmaydi.

Shaxs tabiati va mohiyatini o'rganish nafaqat mavhum-nazariy, balki konkret-amaliy xususiyatga ham ega. Ko'pgina muammolar shaxsning o'z mavjudligining maqsadi va ma'nosini yetarli darajada bilmasligi, yetarlicha o'ylanmagan qiymat yo'nalishi va haqiqiy ehtiyojlarni soxta narsalar bilan almashtirish natijasidir. Shu nuqtayi nazardan aytish mumkinki, insonning

mohiyatini adekvat tushunish ularni hal qilishda muayyan hissa qo‘shishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Shaxs mohiyatini tahlil qilish muammosi u yoki bu darajada ko‘pchilik falsafiy asarlarda qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha ko‘rib chiqiladi. Bu muammo o‘rta asrlarda, Uyg‘onish va Yangi asrda ham doimiy tarzda tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Bu muammoni o‘rganishga nemis klassik falsafasi vakillari hisoblangan I.Kant [7], I.G.Fixte, I.V.Gyote kabilar katta hissa qo‘shgan. Keyingi davrda esa S.Kerkegor, Z.Freyd [9], E.From [10], K.Yung asarlarida shaxsning ijtimoiy, psixologik, ma’naviy mohiyatini ochib berishga alohida ahamiyat qaratildi.

K.Marks [8] va F.Engels kabi faylasuflar esa shaxsning mohiyatini sotsial determinizm nuqtayi nazaridan ochib berdilar va shaxs tabiatidagi tabiiy va ijtimoiy xususiyatlarni tushuntirishga dialektik-materialistik monizm tamoyillari asosida yondashdilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Shaxs mohiyatiga ta’sir qiluvchi biologik, ijtimoiy va ma’naviy omillarga bag‘ishlangan ushbu maqolada mavzuni to‘liqroq yoritib berish uchun taqqoslash, analiz, sintez, germenevtik tahlil kabi ilmiy-tadqiqot metodlari va usullaridan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Shaxs mohiyati uni boshqa obyektlar va hodisalardan xususan, boshqa hayvonlardan ajratib turadigan narsadir. Shaxs mohiyati bir-biriga bog‘liq bo‘lgan biologik, ijtimoiy va ma’naviy jihatning ajralmas birikmasidir. Ularning har biri, o‘z navbatida murakkab tuzilishga ega [1].

Shaxsning o‘zi uchta tarkibiy qismga (biologik, ijtimoiy va ma’naviy) ega bo‘lganidek, biz ham uning ma’naviyatini uch tomonning birikmasi sifatida ko‘rib chiqishimiz mumkin. Falsafada, sotsiologiyada, shuningdek, psixologiyada an’anaviy ravishda shaxs deb tushuniladigan narsa bizning tushunchamizda “fuqaro” va “individ” atamalari bilan ko‘proq bog‘liqdir. Fuqaro – jamiyat a’zosi, ijtimoiy munosabatlar va aloqalar tizimiga kiradigan shaxs, shaxsning ijtimoiy xususiyatlari, fazilatlari va munosabatlari majmuidir. Individuallik esa bir individning boshqalarga o‘xshamasligining o‘lchovidir, uni umumiy massadan ajratib turadigan o‘lchovdir.

Shaxsning tuzilishida individlar tug‘ilib kamolga yetgan oila tuzilishi, ularning shu muhitdagi shaxslar bilan o‘zaro munosabati muhim rol o‘ynaydi. Inson dunyoga kelganida duch keladigan birinchi ijtimoiy guruh bu oiladir. Oila shaxsning asosiy biologik xususiyatlari natijasida paydo bo‘lgan institut bo‘lsa-da, funksional nuqtayi nazardan u jamiyatdagi boshqa institutlar tomonidan bajarilmaydigan ba’zi funksiyalarni o‘z zimmasiga oladigan muhim tuzilmadir. Bu oila institutini universal qiladi va uning jamiyatda mavjudligi va haqiqiyligini ta’minlaydi. Oilaviy muhit – bu qadriyatlarni o‘rganish, xulq-atvor tendensiyalarini o‘zlashtirish va ijtimoiy qadriyatlarni singdirish boshlanadigan birinchi joy hisoblanadi. Oilaviy muhitda shaxslar ijtimoiy normalarni mukofot va jazo tizimi orqali o‘rganadilar [4].

Ba’zi olimlar oiladagi shaxslar soni, ota-onalarning ta’lim darajasi, ijtimoiy tabaqa va geografik joylashuv kabi omillar shaxsning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydilar. Masalan, agar ota-onalar oilada ijtimoiy munosabatlarda demokratik boshqaruvni yo‘lga qo‘ysa, bola qulayroq muhitda tarbiyalanadi, voqea-hodisalarga nisbatan obyektiv nuqtayi nazarga ega bo‘ladi, bolaning o‘zini erkin tutishi va vaqt o‘tishi bilan faollashib, atrofdagilar bilan samarali muloqot qila olishi kuzatiladi.

Kishilar yashaydigan jamiyatning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi yana bir muhim omil hisoblanadi. Har bir shaxs yashaydigan jamiyatning madaniy xususiyatlari uning shaxsiyatiga chuqur ta’sir qiladi. Jamiyatda ishlab chiqilgan me’yorlar odamlarni muayyan

xulq-atvor namunalari doirasida harakat qilishga olib keladi. Shu sababli, shaxslar jamiyatning umumiy mahsuloti bo‘lgan madaniyatni so‘zsiz qabul qiladilar. Bu holat shaxsning shaxsiyatiga ham ta’sir qiladi [5].

Biz jamiyatda birga yashayotgan odamlar ham biz o‘rgangan narsalarimizga ta’sir qiladi. Bu guruhlar orasida eng muhim misollar oila, maktab va do‘stlardir. Yaxshi, yomon, to‘g‘ri, noto‘g‘ri kabi qadriyat hukmlari birinchi navbatda ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadi. Biz yashayotgan ijtimoiy muhit ham odamlarning o‘xshash xatti-harakatlarni namoyon qilish tendensiyasiga ta’sir qiladi. Shaxslarning o‘xshash xulq-atvor namunalarida harakat qilishlari ularning umumiy xarakterga ega bo‘lishiga ta’sir qiladi.

Kishilar mansub bo‘lgan ijtimoiy sinflar va tuzilmalar ularning shaxsini shakllantirishga ta’sir etuvchi yana bir omildir. Bugungi kunda odamlar moliyaviy darajasi, ega bo‘lgan ma’lumoti, qilayotgan ishlari va obro‘-e’tibor me’yorlari asosida ijtimoiy sinflarga ajratiladi. Sinf muhiti odamlarning xatti-harakatlari, g‘oyalari va fikrlariga ta’sir qiladi. Shaxslar mansub bo‘lgan sinfning xususiyatlari ularning ta’lim imkoniyatlariga, turmush tarziga, e’tiqod tizimiga, munosabatiga va xatti-harakatlariga ta’sir qiladi. Masalan, ijtimoiy-iqtisodiy saviyasi yuqori oila farzandi ro‘zg‘orini to‘ldirish haqida o‘ylamay, kelgusidagi rejalarida ta’lim-tarbiyaga e’tibor qaratadi. Biroq, imkoniyatlari cheklangan shaxs uchun buni aytish mumkin emas. Bu kabi shaxs o‘z kelajagini qurish va hozirgi holatidan yaxshiroq mavqega ega bo‘lishni maqsad qilib olgan ta’lim imkoniyatlaridan foydalanishga harakat qiladi [6].

Ommaviy axborot vositalari shaxslarning erta yoshda ijtimoiylashuvi va sotsializatsiya jarayoniga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ommaviy axborot vositalari bolalar va hatto kattalarning hayoti va shaxsiy rivojlanishida chuqur iz qoldirishi tadqiqotlar natijasida isbotlangan.

Kishilarning shaxsiy xususiyatlariga ular yashayotgan hududning iqlimi, tabiati va geografik sharoiti ham ta’sir qiladi. Tekisliklarda, issiq yoki sovuq iqlimda, tog‘li hududlarda va turli geografik xususiyatlarga ega mintaqalarda yashovchi shaxslarning shaxsiy xususiyatlari ham bir-biridan farq qiladi. Masalan, sovuq iqlimli mintaqada yashovchi shaxsning turmush tarzi shunga mos ravishda shakllanadi. Bu hududlarda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish imkoni bo‘lmagani uchun, odamlar asosan ov va baliqchilik bilan kun kechiradi, shuningdek, ularning tanasi sovuq iqlim sharoitlariga chidamli ko‘rinishga keladi. Shunga asoslanib aytishimiz mumkinki, odamlar yashaydigan geografik mintaqalar ularning shaxsiyatiga ta’sir qiladi [7].

XULOSALAR. Xulosa sifatida aytish mumkinki, shaxs o‘zida ijtimoiy, ma’naviy hamda biologik xususiyatlarni mujassamlashtirgan mavjudot bo‘lib, bu xususiyatlar orasida ijtimoiylashuv hodisasi ayniqsa muhim hisoblanadi. Ijtimoiylashuv shaxsning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, ijtimoiy munosabatlarni o‘rganishi va jamiyat me’yorlariga moslashish jarayonidir. Shaxs ijtimoiylashuvi murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, unga oila, ta’lim, tengdoshlar, madaniyat, axborot vositalari va boshqa omillar ta’sir qiladi. Ushbu omillarning uyg‘unligi insonning ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar

1. *Abu Nasr Forobiy: Fozil odamlar shahri*. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 206. – 320 b.
2. Engel George L. The Biopsychosocial Model and the Education of Health Professionals. Annals of the New York Academy of Sciences. 310 (June): 1978. – P. 169–87.
3. Абульханова-Славская К.А. Диалектика человеческой жизни. – Москва: Мысль, 1977. – 224 с.

4. Абульханова-Славская К.А. Стратегия жизни. – Москва: Мысль, 1991. – 299 с.
5. Августин Блаженный. Об истинной религии. Теологический трактат. –Минск: Харвест, 1999. – 1598 с.
6. Грицанов А. А. Никомахова этика // История философии: Энциклопедия. — Минск: Интерпрессервис; Книжный Дом, 2002. – 1376 с.
7. Кант И. Антропология с прагматической точки зрения //Кант И. Соч.: В 6-ти т. -Т. 6. – Москва: Мысль, 1966. – С. 349 - 588.
8. Маркс К. Капитал. Процесс обращения капитала //Маркс К., Энгельс Ф. Соч.-Т. 24. – Москва: Политиздат, 1961. – С. 31-596.
9. Фрейд З. Основной инстинкт. – Москва: Олимп: АСТ, 1997. – 654 с.
10. Фромм Э. Душа человека. – Москва: АСТ-ЛТД, 1992. – 664 с.